

BADIY MATNDA TIL VOSITALARINING IFODALANISHI: ESTETIK VA LINGVISTIK YONDASHUV

Eliyor Rajabov

Qarshi xalqaro universiteti o‘qituvchisi

elyorrajabov67@gmail.com

Annotation: This article analyzes the use of linguistic devices in literary texts, their poetic actualization, integrative relations within the text, and the aesthetic function of language units from a lingvopoetic perspective. Through examples, the artistic and aesthetic significance of phono-graphic tools is revealed. It is scientifically substantiated that not all linguistic units within a text possess the same aesthetic status, and their functional load in poetic context varies.

Keywords: literary text, linguistic devices, poetic actualization, lingvopoetics, integration, alliteration, phonopoetics, intertextuality.

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiy matnda til vositalarining qo‘llanish xususiyatlari, ularning poetik aktuallashuvi, matndagi integrativ aloqalar va til birliklarining estetik vazifasi lingvopoetik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Misollar orqali fono-grafik vositalarning badiy-estetik salmog‘i ochib beriladi. Matnda til birliklarining har biri bir xil estetik maqomga ega emasligi, ularning poetik kontekstdagi funksional yuklamalari farqli bo‘lishi ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: badiy matn, til vositalari, poetik aktuallashuv, lingvopoetika, integratsiya, alliteratsiya, fonopoetika, intertekstuallik.

Kirish. Badiy matn tilini estetik maqsad bilan o‘ziga xos tarzda qo‘llash mahsuli bo‘lganligi uchun unda umumxalq tilidagi barcha vositalarning ishtiroki va harakati erkindir. Adabiiy tildagi, hatto umumxalq tilidagi til birliklarining qo‘llanishi, qo’shilishi bilan bog’liq juda ko’plab me’yorlar shaklidagi qat’iy qoidalar badiy matnda yumshashi, ancha sarbast harakat qilishi mumkin. Albatta, til vositalarining badiy matndagi bunday erkinligi ijodkor badiy niyatining ro’yobga chiqishiga xizmat qiladi. Ammo bundan badiy matndagi til

vositalarining barchasi bab - baravar, bir xil estetik maqomdadir degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bir misol: H. Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni shunday boshlanadi:

*Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim...*

Yuqorida keltirilgan bir badiiy matn parchasidir. Ammo undagi biror so'zni tasviriy vositalar sirasiga kiritib bo'lmaydi, barchaga ma'lumki, tasviriy vosita badiiy – estetik salmoq bilan yukungan bo'ladi. Albatta, bu so'zlarni tasvir vositasi deyish mumkin, ya'ni voqeа xolis, neytral tasvirlangan. Ko'rinish turganiday, parchada badiiy mazmun emas, balki obyektiv mazmun ifodalangan. Ammo doston davomidagi quyidagi misralarda tasviriy vositalar aniq sezilib turadi:

*“Tohir-Zuhra”, “Yoriltosh”,
Oyni uyaltirgan qosh...*

Avvalo, ertak nomlari bolmish “Tohir-Zuhra”, “Yoriltosh” qo'lllangan bo'lib, bu ertaklar ham matn ichidagi matnlar sifatida estetik vazifa bajaradi. Bu ertaklar mazmunisiz keyingi misralardagi tasviriy ifodani tushunish qiyin. Aytish lozimki, “oyni uyaltirgan qosh” ko'chimga asoslangan betakror ifoda va chinakam tasviriy vositadir. Odatda qayrilma qosh hilolga, yangi oyga o'xshatiladi, ammo bu o'rinda qosh shu qadar chiroyliki, u hatto oyni ham ortda qoldiradi, oyni uyaltiradi. Ta'kidlash lozimki, badiiy matnda barcha birliklar, vositalar aynan teng badiiy til birliklari, til vositalari alohida, ayricha poetik qimmat kasb etadi, boshqalari esa tasvirda ishtirok etsa ham, poetik jihatdan passivroq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, yahlit badiiy matn yoki muayyan badiiy kontekstga ko'ra, muayyan til birligi estetik jihatdan birinchi planga chiqadi va qo'shimcha, yangi ma'nolar ifodachisiga aylanadi. Bu hodisa dastlab o'tgan asrning 20 - yillarida Pragalingvistik to'garagi vakillari tomonidan qayd etilgan va “aktualizatsiya” termini bilan nomlangan. Til vositalarining badiiy matnda bunday poetik akuallashuvi tovushdan tortib strukturalargacha bo'lgan birliklar

doirasida o'ziga xos tarzda kuzatiladi, ya'ni tilning barcha sathlariga oid bo'lgan birliklar badiiy matnda aktuallashishi, turli badiiy ma'nolar tashishi mumkin.

Muayyan til birligining poetik aktuallashuvida badiiy matndagi birliklar o'rtasidagi munosabatlar ham muhm rol o'yinaydi. Bunday munosabatlar "ierarxik munosabat", "integrativ munosabat" kabi terminlar orqali ifodalanadi. Tilning oliv sathi birligi bo'l mish matnning yahlitligi ayni shu munosabatlarda namoyon bo'ladi. Badii matndagi integrativ munosabatlar ham shaklan, ham mazmuniy mohiyatga ega bo'ladi. Integratsiya xilma - xil leksik grammatik vositalar va semantik - estetik omillar asosida ro'y beradi. Bu vosita va omillar badiiy matnda sezilarli bo'ladi. Masalan, muayyan bir semantik maydonga mansub birliklarning badiiy matnda yoki uning qismida bevosita bir - biriga yaqinlashtirilishi, integratsiyalashganda yaqqol seziladi. Aytaylik, *suv, tegirmon, chaxpalak, bug'doy, un* kabi so'zlar muayyan bir ishlab chiqarish sohasiga oid so'zlar sifatida bir semantik maydonni hosil qiladi deyish mumkin. Quyidagi she'riy parchada ana shu so'zlar matn integratsiysini kuchaytirgan va shu asosda o'zaro poetik jihatdan aktuallashgan, qo'shimcha badiiy ma'nolarni ifodalagan bo'ladi:

Aylanadi charxpak, gulduraydi tegirmon.

Umr o'tar suv kabi, bug'doy misol to'kilar.

Un ko'tarib qaytayotgan befarzand Yoqub polvon

Simyog'ochga suyanib yig'laganin kim bilar?..(I.Mirzo, "Ramozon").

Matn integratsiyasida, demakki, poetik aktuallashuvda tilning turli sath birliklari o'ziga xos tarzda ishtirok etadi. Badiiy matnda quyidagi til vositalari poetik aktuallashish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin:

"Fono-grafik vositalar" Ma'lumki, badiiy matnda tovushlarning xilma - xil kutilmagan kombinatsiyalari ham poetik jihatdan aktuallashishi mumkin. Bunda tasvir o'ziga xos ohangdorlik kasb etadi, matn komponentlarining zinch ham mazmuniy, ham shakily integrativligi badiiy matnning estetik butunlik sifatidagi mohiyatini yaqqol namoyon etadi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida tadqiqotchilar muayyan tovushlarning poetik nutq uchun xoslanishi, tovushlarning poetik salmog'i, ularning turli hissiy assotsiatsiyalar bilan

bog'lanishi masalalarini lingvostatistik metodlar asosida o'rganib, poetik fonetika yuzasidan qiziqarli fikrlarni olg'a surmoqdalar.

Nutq tovushlari sistemasida ekspressivlikni ifodalash jihatidan unli tovushlarning imkoniyati katta. Shuningdek, ifodaning ta'sir kuchini oshirishda undosh tovushlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning ham o'rni benihoya kattadir. Alliteratsiyaning ikki turi: a) vertikal; b) gorizontal kabi turlari farqlanadi¹.

Vertikal alliteratsiya, asosan, she'riy matnga xos bo'lib, misralar boshidagi so'zlarda, ya'ni misralararo, gorizontal alliteratsiya esa, misra yoki jumla ichida bo'ladi. N. Rahmonov ko'rsatilgan tadqiqotida Kultegin yodnomasi ritmik proza bo'lganligi uchun unda gorizontal alliteratsiya mavjudligini ta'kidlaydi. She'riy matnda esa ham vertikal, ham gorizontal alliteratsiya birdaniga ishtirok etaverishi mumkin. Masalan, shoir S. Sayyidning "Muhabbat devoniga" nomli she'rini olib ko'raylik:

Ko'yi ishqida, qarangkim,

andalib bo'ldi ko'ngil,

Andalib bo'ldi ko'ngil, ham

aldanib bo'ldi ko'ngil.

Shoir matnda *andalib* (bulbul) va *aldanib* so'zlarini betakror mahorat bilan qo'llagan, ulardagi **n** va **l** tovushlarining almashinushi asosida juda kuchli poetik aktuallashuv yuzaga kelgan. Yorning oshiqqa vafo qilmasligi, uni hamisha kuydirishi, uni aldashi *gul* va *bulbul* obrazlari orqali tasvirlanishi badiiy adabiyotdagi eski an'anadir, ammo bu o'rinda *andalib* – *aldanib* tarzidagi tamoman o'ziga xos bir qarshilantirish betakror ohorlilik kasb etganki, fonetik vositalarning poetik aktuallashuvi sababli mazkur obrazlar yangilanganday bo'lgan. Badiiy matnda ijodkor o'z badiiy niyati va uslubi, shuningdek, o'ziga yaqin bo'lgan an'analarga muvofiq tarzda grafik igodalilik, obrazlilikning xilma - xil ko'rinishlaridan foydalanadi. Masalan, poetik urg'u berilmoxchi bo'lgan so'z yoki jumla kursiv, qalin harf bilan yozilishi mumkin, intertekstuallik mavjud bo'lgan holatlarda, ya'ni

¹ Is'hoqov M. Rahmonov N. va boshq. O'lmas obidalar. - Toshkent: Fan, 1989, 153-bet.

matn ichiga o'zga matn (yoki ijodkorning o'z qalamiga mansub maktub yoki boshqa matn) olib kirilganda, mazkur intermatn kursiv bilan ajratilishi mumkin.

Nasriy asarlar fonopoetik xususiytlarini tadtqiq etgan O.Tursunova nasriy asarlar fonopoetikasida nutq tovushlarini cho'zib talaffuz qilish, birdan ortiq yozish, fonetik jarayondagi turli hodisalar so'zlovchining nutq vaziyatiga, vogelikka turli munosabatini bildirish: quvonch, g'azab, achchiqlanish, afsus, hayrat, tajjub, kinoya, piching, kesatiq, rozilik, norozilik, tilak-istik va hokazolarni ifodalashda fonetik birliklardan foydalanish va nasriy nutqda bunday fonetik vositalar aksariyat dialoglarda, xususan, personajlar nutqida qo'llanishinshini quyidagi holatlarda kuzatilish mumkinligini ta'kidlab o'tadi:²

- *Jandiq opqoling, dedim, otaxon! Jandiq! – dedi u aftini bujmaytirib.*

– *Kampiringiz lag'mon cho'zib beradi! - E-e, lag'monga soladimi, buni? – cho'zildi chol.*

- *Keyin qulogqa osadi-i!...–yasama hirningladi ayol boyagi alamidan chiqolmay*(X.Do'stmuhammad, Bozor, 139-bet)

So'zlovchining “e-e” talaffuzi taajjub ma’nosini, I tovushining cho'zilishi esa ikki xil: so’roq (cholning nutqida), kesatiq (ayolning nutqida) ma’nolarini anglatadi. Tovushlrning turlicha talaffuzi so'zlovchi va tinglovchining o'zaro munosabatini ham bildiradi.

– *I, bi-i ! Bizdi hamsoyaning bachasi-ku, bu!..*

Fozilbek lo 'li xotinning muddaosini tushunmadi, tushunmadi-yu, uning muloyimligi, mehribonligi shu qadar yoqdiki, azbaroyi eti jimirlashib ketdi.(X.Do'stmuhammad, Bozor, 65-bet)

Misoldagi *I, bi-i* kabi hayrat ohangida bir tovushni cho'zib talaffuz qilinishi, avvalo, individual nutqni ko'rsatadi, obrazning xarakterini ochishga xizmat qiladi hamda suxbatdoshda iliq munosabat uyg'otadi. Xullas, badiiy matndagi integrativ aloqalarga ko'ra

² Турсунова О. Фонетик воситаларнинг насрий матнданги поэтик хусусиятлари. / ЎТА, 2021, № 6.-Б.101-102

fono - grafik vositalar shu tariqa poetik aktuallashadi, matnni idrok etilishini yanada kuchaytiradi.

“Leksik vositalar” badiiy matn tahlilida, ayniqsa, so’z alohida o’rin tutadi. Badiiy matnda so’zdagi konnotativ ma’no muhim, bu konnotativ ma’noni harakatga keltirish, unga asoslangan holda yahlit badiiy mazmunga xizmat qiladigan original badiiy ma’nolarni yuzaga keltirish, albatta, yozuvchining mahoratiga bog’liq. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, konnotatsiya badiiyat uchun xizmat qilishga “ixtisoslashgan” hodisa, konnotativ ma’noli so’z badiiy ifoda uchun hamisha tayyor turgan so‘zdir.

Badiiy matnda poetik aktuallashgan leksik vositalarning lingvopoetik qimmatini belgilashda sinonim, omonim, antonim, polisemantik, va arxaik so’zlar, yangi yasalmalar, shevaga xos so’zlar, chet el va vulgar so’zlarga alohida e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Masalan:

Do’stlar eshigimni yuz bora qoqar,

Eshik qoqmay kirar maktub bir qizdan.

Goho jonga yoqar, goh jonni yoqar...

Yolg’izman... (I. Mirzo, "Yolg’izman" she’ri)

“Morfologik vositalar” orqali badiiy matndagi estetik vazifaning namoyon bo’lishi xilma - xildir. Maxsus so’z formalari vositasida, shuningdek, ma’lum bir grammatik ma’no va vazifaga ega bo’lgan so’z shakllarini maxsus qo’llash orqali ekspressivlik – emotSIONallik ifodalanishi mumkin. Bunda ot so’z turkumining ko’plik, egalik, kelishik kategoriyalari va subyektiv baho shakllarining poetik imkoniyatlari, sifat darajasini hosil qiluvchi shakllar, sifatlarni epitetni yuzaga keltirishda faol ishtirok etishi orqali badiiy – estetik effekt hosil qilishi va son, olmosh, fe’l kategoriyalari muayyan integrativ aloqalar asosida estetik vazifa bajarishi va tegishli badiiy ma’nolarning ifodalanishiga xizmat qiladi.

“Sintaktik vositalar” badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etishi barobarida ayni shu munosabatlar fonida xilma - xil badiiy ma’no - mazmunlarni ham ifodalaydi. Ularga quyidagi vositalarni kiritish mumkin: *sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so’roq gap, unversiya, ellipsis (antiellipsis),*

parsellyatsiya, atovgaplar (segmentatsiya), gradatsiya va boshqalar . Tilshunos olim A. Abdullayev ekspressivlikning namoyon bo’lish shakllari sifatida “ sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog’lovchilarning maxsus qo’llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so’roq” kabi uslubiy figuralar fikrning o’ta ta’sirchan ifodalanishiga xizmat qilishini ta’kidlab o’tgan³.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lotman Yu.M. “*Iskusstvo kak model mira*”, *Moskva: Nauka, 1992.*
2. Mukarovskiy Y. “*Estetika yazyka i styl’*”. *M.: Progress, 1970.*
3. Tursunova O. “*Nasriy matn fonopoetikasi*”. *Toshkent: Fan, 2021.*
4. Rahmonov N. “*Qadimgi turkiy yodnomalar fonetikasi*”, *Samarqand, 2009.*
5. Do’stmuhammad X. “*Bozor*”, *Toshkent: Yozuvchi, 2007.*
6. I. Mirzo. “*Ramozon*”, *Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti, 2005.*
7. H. Olimjon. “*Oygul bilan Baxtiyor*”, *Toshkent: Adabiyot va san’at, 1980.*
8. Rahimqulova, L. (2024). Jahon tilshunosligida ijtimoiy tarmoq yozishmalarining tadqiqi: Jahon tilshunosligida ijtimoiy tarmoq yozishmalarining tadqiqi. *MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS OF APPLIED MATHEMATICS, 1(01)*. Retrieved from <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/mp/article/view/666>

³ Abdullayev A. O’zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1998, 58-bet .